UO‘T 687.157.796.41/.03.017.427

AYOLLAR USTKI TRIKOTAJ KIYIMLARIGA BO‘LGAN EHTIYOJNI O‘RGANISH UCHUN MARKETING TADQIQOTLARI TAHLILI

Ergasheva Rashida Abdug‘aniyevna
Namangan davlat texnika universiteti PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollar ustki kiyimida trikotaj matolaridan foydalanish va buning uchun 2 qavatli trikotaj matosining xossalarini bashoratlash asosida uning ekspluatasion xossalarini ta'minlash bo‘yicha tadqiqot natijasi keltirilgan. Shuningdek, marketing tadqiqotlari o‘tkazish orqali respondentlarning ayollar ustki trikotaj kiyimlariga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganilgan. Tavsiyalar asosida yangi modellar tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: trikotaj, model, ayol, ustki, rang, so‘rovnoma.

Аннотация: В данной статье представлены результаты исследования применения трикотажных полотен в женской верхней одежде и обеспечения эксплуатационных свойств на основе прогнозирования свойств двухслойного трикотажного полотна. Также с помощью маркетингового исследования были изучены потребности респондентов в женской верхней одежде. На основе полученных предложений были рекомендованы новые модели.

Ключевые слова: трикотаж, модель, женщина, верх, цвет, анкета.

Abstract: This article presents the results of a study on the use of knitted fabrics in women's outerwear and the provision of performance properties based on predicting the properties of double-layer knitted fabric. Marketing research was also used to assess respondents' needs for women's outerwear. Based on the recommendations received, new models were recommended.

Keywords: knitwear, model, woman, outerwear, color, questionnaire.

Kirish.

Jahonda xomashyoni xususiyatlarini inobatga olgan holda texnologiyani avtomatlashtirish, raqobatbardosh hamda eksportbop tikuv-trikotaj mahsulotlarining yangi assortimentini yaratish va ayollar ustki trikotaj kiyimlarini loyihalash muhim ilmiy-amaliy masalalar qatoriga kiradi [1].

Trikotaj sanoatida juda ko‘p turdagi to‘qimalar mavjud bo‘lib, ich kiyim, yengil kiyim va ustki kiyim mahsulotlari uchun asosan jakkard, press, aralash va ikki qatlamli trikotaj to‘qimalari qo‘llaniladi. Trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarishni yangi texnologiyalarini ishlab chiqish, yangi tarkib va tuzilishli trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarish, assortiment turlarini kengaytirish va xomashyo sarfini kamaytirish maqsadida so‘nggi yillarda ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmoqda.

Sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan trikotaj to‘qimalarini olish vazifasi trikotaj sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Barchamizga ma’lumki kiyim ishlab chiqarish jarayonida ranglar va ularning kompozitsiyasining ahamiyati katta.

ISSN 3030-3907

Har yili “Spring-summer” modular xaftaligini o‘tishidan avval yoz mavsumida “Pantone” instetuti tomonidan bahor-yoz mavsumining dolzarb ranglar palitrasini aniqlashga kirishadi. Unga institutning mutaxassislari jahonning dolzard siyosiy muhitiga tayanadilar. An’anaviy ravishda Pantone Fashion Color Trend Report 10 ta rangdan 5 ta neytral-klassik ranglarga e’tibor qaratadi. Unga ko‘ra bahor-yoz mavsumi uchun yorqin ranglar urfga kirishi aniqlandi [2].

Usullari: Hozirgi kunda trikotaj matolari erkaklar va ayollar gardirobidan keng o‘rin olgan. Bugungi kunda trikotajdan jemper, ko‘ylak, ishton va uy kiyimlari ishlab chiqarilmoqda.

Ikki qatlamli trikotaj-xalqali asosda ikki qatlamli to‘qilgani uchun elastikligi nisbatan yuqori. Elastikligi yuqoriligiga qaramay shaklini yaxshi saqlaydi. Ikki qatlamli trikotajdan tayyorlangan kiyimlarni kiyish jarayonida va yuvilganidan keyin deformatsiyasi kamayadi. Yana bir ijobiy tomoni ikki qatlamli trikotaj ikki tomonlama ustki ko‘rinishga ega. Bugungi kunda ikki tomonlama trikotajdan issiq svitshot yoki keng bichimli ishtonlar loyihalash urfga kiradi.

Matoni ishlab chiqarish texnologiyasi yuqori va sifatli qilib tayyorlashga olib keladi. Kiyim tayyorlashda turli rang nomer va tekstdagi iplardan foydalaniladi.


Iste’molchilardan o‘tkazilgan ranglar tanlovida bugungi kunda oq bilan pushi rang doirasida 16 yoshdan 28 yoshgacha bo‘lgan qiz va ayollar rang tanlash so‘rovnomasi olib borilganda mazkur rangga talab 76 % ni tashkil etdi [3].

O‘rta yoshli ayollar o‘rtasida o‘tkazilgan rang tanlovida zangor oq rangga bo‘lgan talab 80 % ni tashkil etdi.

O‘rta yoshli ayollar o‘rtasida o‘tkazilgan rang tanlovida kulrang oq rangga bo‘lgan talab 86 % ni tashkil etdi.


Ilmiy tadqiqot ishida iste’molchilar talablari o‘rganildi. Iste’molchilar talablarini o‘rganish maqsadida 450 nafar talaba, o‘qituvchi va tarbiyachilar orasida test so‘rovnomasi o‘tkazildi. O‘tkazilgan so‘rovnoma tahlillari shuni ko‘rsatdi. O‘smir yoshdagi qizlar va ayollar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijasining eng yuqori foizini to‘g‘ri bichimli kiyim ko‘rsatgichi 45%, nim yopishgan siluetdagi 5%, yopishgan siluetdagi 36%, trapetsiyasimon siluetdagi 14% ni tashkil etdi (1-rasm).

ISSN 3030-3907



1-rasm. Ayollar ikki qatlamli trikotaj kiyimi qanday bo‘lishini hohlaysiz tanlovi natijasi


Ustki kiyimlarida yengga turlari bo‘yicha reglan yeng 38%, o‘tkazma yeng. 10%, yengsiz 40%, yaxlit. 12% ni tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. Ustki kiyimlarda yeng turlarini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnoma natijasi

Respodentlarni talablariga ko‘ra kul rang 35%, pushti 25%, yashil 28%, qora 12% ni tashkil qildi.

Ustki kiymlardagi qaysi noqulayliklar dilingizni xira qiladi so‘rovida, matoning pilliglanishi 40%, old bo‘lakning orqaga tortilishi 20%, rangning tez xiralashishi 30% ga ega bo‘ldi (3-rasm).



3-rasm. Ustki kiymlardagi qaysi noqulayliklar dilingizni xira qiladi tanlovida

ISSN 3030-3907

Ayollar ikki qatlamli ustki trikotaj kiyimiga mato tanlash bo‘yicha olib borilgan tahlillarda charmdan 7%, mo‘ynadan 3%, drapdan 35%, trikotajdan 55% ni tashkil etdi.

Respodentlardan ikki qatlamli trikotaj kiyimlarida qirqma, qoplama, chok davomidagi cho‘ntak, yoki cho‘ntak bo‘lishini xoxlamaysizmi so‘rovnomasida 48% bilan cho‘ntaksiz bo‘lishini hohlashdi.

Bo‘ksagacha uzunlikda 50%, tizzagacha uzunlikda 16%, bo‘ksani yopsin 24%, farqi yo‘q 10% ni tashkil qildi.

Respodentlarni talablariga ko’ra qizil, ko‘k, moviy ranglar 40% ni tashkil qildi.

Taqilma turi molniya taqilmali 20%, tugmali 18%, yaxlit taqilmasiz 56%, pistonli 6% ni tashkil qildi.

Matoning pilliglanishi 40%, old bo‘lakning orqaga tortilishi 20%, rangning tez xiralashishi 30% ga ega bo‘ldi.

Natijalar: Quyida keltirilgan 4-rasmda 1-tavsiya model uchun asosiy matoning rangi zangori kataklar chizig‘i esa oq rangda berilgan. Asos uchun tavsiya etilgan moviy yashildan hosil bo‘lgan zangorirang tinchlantirish xususiyatiga ega bo‘lganligi sabab o‘rta yoshdagi ayollar uchun sarafani sifatida tavsiya etiladi. Ikki qatlamli geometrik romb shaklidagi akril tolali, naqshli trikotaj to‘qima matolar tavsiya etiladi. Sarafanning teskari tomonidan asosi oq, kataklar chizig‘i esa zangori iplardan to‘qiladi.



a) 1- tavsiya model ko‘rinishi



b) 2- tavsiya model ko‘rinishi



v) 3- tavsiya model ko‘rinishi

ISSN 3030-3907



g) 4- tavsiya model ko‘rinishi



d) 5- tavsiya model ko‘rinishi



j) 6- tavsiya model ko‘rinishi

4-rasm. Olingan to‘qimalarga tafsiya etiladigan modellar

Muhokama (Tahlil)lar: a) 4-rasm, 2-tavsiya model eskizi uchun asosiga romb naqsh chetiga esa oq rang tavsiya etildi. Asos uchun tavsiya etilgan binafsha qizildan hosil bo‘lgan pushti rang nazokat va nafislik belgisi bo‘lib o‘rta yoshli ayollar uchun tavsiya etiladi. Mazkur model ichki tomondan asosi uchun oq rangli akril ipi, romb chetiga qizil rang tavsiya etiladi [4].

Hozirgi kunda o‘smiq yoshdagi qizlar va o‘rta yoshli ayollar uchun zamonaviy keng va trapetsiyasimon bichim urfga aylangan. Shu munosabat bilan mazkur eskiz model uchun Over SAYNS uslubidagi reglan keng yengli tonika tavsiya etiladi.

b) 4-rasm, 3-tavsiya yangi dizayn ko‘rinishdagi model eskizi uchun oq va kulrang kombinatsiyasida ikki qatlamli trikotaj to‘qima matolar tavsiya etildi;

g) 4-rasm, 4-tavsiya model eskizi uchun tavsiya etilayotgan model qora rangda, yubka yeng va kopyushon pushti rangdagi g‘ovakli ikki qatlamli trikotaj matosidan ayollar uchun nimcha tavsiya etildi;

d) 4-rasm, 5-tavsiya model eskizi uchun tavsiya etilayotgan o‘smir qizlar to‘plami tunikasimon bichimli bo‘lib, ikki qatlamli g‘ovak gulli to‘qima asosida ishlab chiqarish tavsiya etiladi;

j) 4-rasm, 6- tavsiya etilayotgan so‘nggi model jigarrang bo‘lib mazkur rang kishi harakatlarini normallashtiradi o‘rta yoshli ayollarga juda yarashadi. Mazkur

ISSN 3030-3907

rang atrofdagilar uchun ko‘rimsiz rang sifatida baholanib, xizmat yuzasidan o‘tkaziladigan tadbirlarga mos keladi.

Xulosa(lar): Avvaldan bashoratlash asosida ikki qatlamli naqshli ustki trikotaj matolarini ishlab chiqarish uchun ayollar zamonaviy keng, trepetsiyasimon, Over SAYNS uslubidagi reglan keng yengli kiyim na‘munalari yaratildi.

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan ustki trikotaj matolari hamda ularning tahlillari asosida Wonderfull rusumli (Xitoy)yassi ignadonli trikotaj to‘quv mashinasining imkoniyatlaridan foydalanib poliakrilnitril xomashyo tarkibidan ikki qatlamli ustki trikotaj 6 xil yangi naqshli na’munalari ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://artich.ekz.com//urti.de
2. https://aurayarns.ru/tpost/72yntxn6m1-tsveta-pryazhi-dlya-vyazaniya-ottenki-se
3. Shogofurov Sh. Sh., Uralov L. S. Analiz podrebitelskogo sprosa na jenskuyu domashnyuyu odejdu //Ekonomika i sosium. – 2020. – №. 2 (69). – S. 471-474.
4. R.A.Ergasheva, D.X.Rayimberdiyeva “Ranglarning kiyimga ta`sir etuvchi kompozitsion yechimi va koloristik qatorini tuzish” Pedagogika sciences and teaching methods international conference Vol.2No.21 14.04.2023

ISSN 3030-3907